

INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA MILLIY VA XALQARO HUQUQ NORMALARINING O'ZARO TA'SIRI

Shermuhammedov Ilg'orjon Marufjon o'g'li

TDYU huzuridagi Samarqand viloyat akademik litsey o'quvchisi.

+998943464642. Ilgorjon378@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20743888>

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy yuridik fanning eng dolzarb muammolaridan biri – inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda milliy hamda xalqaro huquq normalarining o'zaro ta'siri, dialektik aloqadorligi va kollizion jihatlarini fundamental tadqiq etishga bag'ishlangan.

Global o'zgarishlar va transformatsiya jarayonlari davrida davlatlarning suveren huquqlari hamda xalqaro hamjamiyat oldidagi majburiyatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash masalasi tahlil markazida turadi. Muallif xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalarining milliy huquqiy tizimlarga implementatsiya qilinishi (transformatsiya, inkoporatsiya, resepsiya) mexanizmlarini qiyosiy-huquqiy metod yordamida o'rganadi.

Maqolada xalqaro shartnomalar va konstitutsiyaviy normalar to'qnash kelgan vaziyatlarda yuzaga keladigan huquqiy kolliziyalar, xususan, "Dualizm" va "Monizm" doktrinalarining zamonaviy talqinlari atroflicha yoritilgan. Tadqiqot doirasida inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarning milliy sud amaliyotiga ta'siri, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi (IHYeS), BMT qo'mitalari va boshqa xalqaro institutlarning qarorlari milliy pretsedentlar shakllanishida qay darajada rol o'ynayotgani empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi.

Shuningdek, maqolada milliy qonunchilikning xalqaro huquq normalari bilan uyg'unlashuvi jarayonidagi tizimli muammolar, huquqiy bo'shliqlar va ularni bartaraf etishga qaratilgan amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xulosa qismida inson huquqlarini samarali himoya qilish faqatgina ikki tizimning konstruktiv va o'zaro muvofiqlashtirilgan integratsiyasi orqali ta'minlanishi mumkinligi ilmiy asoslab berilgan.

Tayanch so'zlar: inson huquqlari, xalqaro huquq normalari, milliy qonunchilik, implementatsiya, monizm, dualizm, huquqiy kolliziya, suverenitet, xalqaro standartlar, sud amaliyoti, integratsiya.

Asosiy qism. Inson huquq va erkinliklarini ta'minlash tizimida milliy va xalqaro huquq normalarining o'zaro dialektik aloqasi zamonaviy huquqshunoslikning eng dinamik va fundamental muammolaridan biri hisoblanadi. Xalqaro huquq inson huquqlarining universal standartlarini andoza sifatida belgilasa, milliy huquq davlat suvereniteti doirasida ushbu normalarni hayotga tatbiq etishning huquqiy va institutsional mexanizmlarini yaratadi.

Huquqiy doktrinada bu ikki tizim munosabatlarini belgilovchi monizm va dualizm nazariyalari bugungi kunda o'zining klassik va radikal shakllarida mavjud emas. Monizm nazariyasi xalqaro va milliy huquqni yagona iyerarxik tizim sifatida talqin qibly, xalqaro huquq ustunligini (primat) ilgari sursa, dualizm ularni mutlaqo mustaqil, subyektlari va tartibga solish predmeti turlicha bo'lgan tizimlar deb hisoblaydi.

Biroq, zamonaviy xalqaro huquqning rivojlanishi, ayniqsa, inson huquqlari sohasining globallashuvi ushbu ikki qarama-qarshi oqimning o‘zaro sintezini va evolyutsion uyg‘unlashuvini vujudga keltirdi. Bugungi kunda inson huquqlari sohasi davlatlarning mutloq ichki yurisdiksiyasidan (*domaine réservé*) chiqib, xalqaro hamjamiyatning umumiy majburiyatiga (*erga omnes*) aylanib ulgurdi. Buning natijasida milliy huquq tizimlari xalqaro shartnomaviy normalarni qabul qilish (inkorporatsiya), moslashtirish (transformatsiya) va uyg‘unlashtirish (resepsiya) jarayonlarini tizimli ravishda boshidan kechirmoqda. Xalqaro xususiyatga ega normalarning ichki huquqiy maydonda real ishlashini ta‘minlash mexanizmi implementatsiya jarayoni orqali kechadi.

Davlatlar o‘z zimmlariga olgan xalqaro majburiyatlarni bajarish uchun ichki qonunchilikni qayta ko‘rib chiqishga va kollizion holatlarni bartaraf etishga majburdirlar. Mazkur jarayonda davlat suvereniteti va universal huquqiy standartlar o‘rtasidagi oltin muvozanatni saqlash huquq ijodkorligi organlaridan yuqori darajadagi yuridik texnika va chuqur tahlilni talab etami. Inson huquqlari bo‘yicha universal normalar xalqaro huquqning imperativ normalari (*jus cogens*) maqomiga ko‘tarilayotgani sababli, milliy huquq tizimlari o‘zlarining konstitutsiyaviy cheklovlarini xalqaro andozalarga moslashtirish bosqichida turibdi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasi milliy va xalqaro huquq normalari simbiozini mutloq yangi yuridik bosqichga ko‘tardi. Konstitutsiyaning 15-moddasi uchinchi qismida O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume‘tirof etilgan prinsiplari va normalari bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarkibiy qismidir, deb qat‘iy belgilab qo‘yildi. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining qonunida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, unda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi qoidalari qo‘llanilishi mustahkamlandi. Ushbu normalar tizimi davlatimizning huquqiy arxitekturasida xalqaro huquq primati prinsipini to‘g‘ridan-to‘g‘ri va shartsiz amal qilishini ta‘minlaydi. Ya‘ni, milliy qonun va xalqaro shartnoma o‘rtasida ziddiyat yoki kolliziya yuzaga kelgan taqdirda, subyektlar, xususan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xalqaro norma qoidalarini qo‘llashlari majburiydir. Konstitutsiyaviy darajadagi ushbu o‘zgarish monistik yondashuv elementlarining milliy dualistik an‘analarga muvaffaqiyatli singdirilganidan dalolat beradi. Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 54-moddasida inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash davlatning oliy maqsadi ekanligi belgilangan bo‘lsa, 19-moddasida inson huquqlari O‘zbekiston Respublikasining xalqaro huquq normalariga muvofiq e‘tirof etilishi va kafolatlanishi belgilab qo‘yilgan. Bu qoidalar milliy huquq ijodkorligi sohasida qabul qilinayotgan har bir normativ-huquqiy hujjat xalqaro huquq sanchqisidan va ekspertizasidan o‘tkazilishi shartligini anglatuvchi huquqiy poydevordir. Konstitutsiyaviy o‘zgarishlar tufayli ichki huquq subyektlariga xalqaro normalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tayanib o‘z huquqlarini himoya qilish imkoniyati taqdim etildi.

O‘zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo‘yicha 80 dan ortiq xalqaro shartnomalarni, jumladan BMTning 6 ta asosiy konvensiyasini ratifikatsiya qilgan. Ushbu normalarning milliy qonunchilik bazasiga integratsiyalashuvi bir qator amaldagi kodekslar moddalarida o‘zining amaliy ifodasini topgan.

O‘zbekiston 1995-yilda BMTning “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro paktiga qo‘shilgan bo‘lib, mazkur paktning 9-moddasida hech kim o‘zboshimchalik bilan hibsga olinishi yoki qamoqqa olinishi mumkin emasligi qayd etilgan.

Ushbu universal norma amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining (JPK) bir qator moddalariga chuqur implementatsiya qilingan. Xususan, JPK 18-moddasida shaxsni sud qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turish taqiqlanishi qat’iy belgilangan bo‘lsa, JPK 46 va 48-moddalarida dunyo tan olgan “Miranda qoidasi” to‘liq o‘z aksini topgan. Shaxs ushlangan ilk soniyalardanoq unga huquqlari, ko‘rsatuv bermaslik huquqi hamda advokat bilan ta‘minlanish kafolati qonuniy kuchga kiritilgan. Shuningdek, JPK tizimida “Xabeas Korpus” instituti kengaytirilib, uy qamog‘i, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish, lavozimidan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish kabi cheklovlar faqat va faqat jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarning qarorlari asosida amalga oshirilishi mustahkamlangan. BMTning “Qiynoqlar hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatini kamsituvchi turlari va jazolarga qarshi Konvensiyasi” prinsiplari asosida milliy jinoyat qonunchiligida ham jiddiy islohotlar o‘tkazildi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 235-moddasida qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatini kamsituvchi muomala turlarini qo‘llaganlik uchun jinoiy javobgarlik doirasi kengaytirildi va sanksiyalar keskin kuchaytirildi. Mazkur moddaning dispozitsiyasi xalqaro konvensiyadagi qiynoq ta‘rifiga to‘liq moslashtirildi. JPK 11-moddasi va 95-1-moddalariga ko‘ra, ruhiy yoki jismoniy tazyiq, qiynoq, huquqlari tushuntirilmagan holatda yoki advokatsiz olingan har qanday ko‘rsatuv hamda dalillar yuridik kuchga ega emas deb topiladi hamda bunday dalillarni sud hukmiga asos qilib olish qonunan mutloq taqiqlanadi.

BMTning “Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyasi” (CEDAW) talablarini bajarish maqsadida davlatimiz ichki qonunchilikda gender tenglik va xotin-qizlar huquqlari himoyasi bo‘yicha tub burilish yasadi. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun bilan davlat xizmatida va ijtimoiy hayotda gender tenglikni ta‘minlashning huquqiy mexanizmlari belgilangan bo‘lsa, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun orqali xotin-qizlarga “himoya orderi” berish instituti joriy qilindi. Shuningdek, Jinoyat kodeksi va Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga kiritilgan o‘zgartishlarga ko‘ra, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik uchun Jinoyat kodeksining 126-1-moddasi bilan alohida jinoiy va ma‘muriy javobgarlik moddalarini kiritildi. Bu CEDAW qo‘mitasining O‘zbekistonga yo‘llagan tavsiyalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri amaliy transformatsiyasidir. Mehnat huquqlari va majburiy mehnatga barham berish sohasida Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) “Majburiy mehnat to‘g‘risida”gi va “Majburiy mehnatni tugatish to‘g‘risida”gi konvensiyalari milliy qonunchilikda qat’iy jazolash choralari orqali ta‘minlandi. Yangi Mehnat kodeksining 5-moddasida majburiy mehnat mutloq taqiqlanishi muhurlandi hamda Jinoyat kodeksining 148-2-moddasi orqali majburiy mehnatga yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxslarga nisbatan to‘g‘ridan-to‘g‘ri jinoiy javobgarlik belgilanishi mamlakatda bolalar mehnati va tizimli majburiy mehnatning to‘liq tugatilishiga asosiy omil bo‘ldi.

Milliy va xalqaro huquq normalarining integratsiyasi nazariy jihatdan mukammal ko'rsatib berilgan, huquqni qo'llash amaliyotida, ayniqsa sud tizimida tizimli muammolar va huquqiy bo'shliqlar saqlanib qolmoqda. Eng birinchi muammo sudlarda xalqaro normalarni to'g'ridan-to'g'ri qo'llash ko'nikmasining yetishmasligidir. Konstitutsiyaning 15-moddasida aniq yozilgan bo'lsa-da, quyi instansiya sudlari sud hujjatlarini shakllantirishda xalqaro konvensiya moddalariga to'g'ridan-to'g'ri iqtibos keltirishdan qochishadi. Sudyalarning an'anaviy ravishda faqat ichki qonun hujjatlari yoki Oliy sud Plenumi qarorlariga tayanib ish ko'rishadi. Xalqaro normalarning amalda to'g'ridan-to'g'ri ishlanmasligi huquqiy primat prinsipini qisman deklarativ xarakterda qoldirmoqda.

Ikkinchidan, xalqaro shartnomaviy organlar qarorlarining protsessual maqomi masalasi ochiq qolmoqda. O'zbekiston BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasiga fuqarolarning individual shikoyatlarini yuborish huquqini tan oladi, ammo ushbu qo'mita tomonidan qabul qilingan va inson huquqi buzilganini aniqlagan yakuniy qarorlar hamda tavsiyalarni (Views) milliy sudlar tizimida majburiy ijro etish, ishni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish tartibining protsessual mexanizmlari JPK va FPKda oxirigacha mukammallashtirilmagan.

Uchinchidan, qonunosti hujjatlarining xalqaro normalarga zid kelishi holatlari hamon uchramoqda. Ko'p hollarda vazirlik va idoralar tomonidan qabul qilinadigan ichki buyruqlar, nizomlar va yo'riqnomalar O'zbekiston ratifikatsiya qilgan xalqaro konvensiyalarga moddiy jihatdan zid keladi va ushbu qonunosti hujjatlarini tizimli ravishda bekor qilish va filtrlash mexanizmi adliya organlari tomonidan yetarlicha qat'iy olib borilmayapti. To'rtinchidan, konstitutsiyaviy nazorat tizimidagi bo'shliqlar mavjud. Xalqaro shartnomalar ratifikatsiya qilingunga qadar Konstitutsiyaviy sud tomonidan tekshiriladi, biroq xalqaro huquq normalarining dinamik rivojlanishi va xalqaro sudlar tomonidan beriladigan yangicha talqinlar kelajakda amal qily turgan xalqaro shartnoma bilan Konstitutsiya o'rtasida kolliziya keltirib chiqarishi mumkin.

Bunday holatda milliy suverenitet va xalqaro majburiyat ustuvorligi o'rtasidagi iyerarxiya masalasi amaldagi "Xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi Qonunda aniq echilmagan.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish va milliy huquq tizimining xalqaro andozalar bilan real uyg'unligini ta'minlash uchun bir qator amaliy-yuridik yechimlar talab etiladi. Birinchidan, sud protsessual qonunchiligini modernizatsiya qilish doirasida JPK, FPK va Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodekslarga sudyalarning tomonidan xalqaro huquq normalarini to'g'ridan-to'g'ri qo'llash uslubini belgilovchi alohida moddalar kiritish lozim. Sudya milliy qonun va xalqaro shartnoma o'rtasida to'qnashuv ko'rsa, qaysi norma asosida qaror chiqarganini va milliy qonunni rad etganini o'z hujjatida majburiy asoslashi shartligi belgilanishi kerak.

Ikkinchidan, Oliy sud Plenumi tomonidan "Sudlar tomonidan inson huquqlariga oid xalqaro huquq normalarini va xalqaro shartnomalarni to'g'ridan-to'g'ri qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi maxsus Plenum qarori ishlab chiqilishi zarur bo'lib, bu quyi instansiya sudyalari uchun universal protsessual yo'riqnoma vazifasini o'taydi. Uchinchidan, BMT qo'mitalari qarorlari ijrosini qonunlashtirish maqsadida JPKning 522-moddasiga BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitalarining qaror va tavsiyalarini to'g'ridan-to'g'ri sud qarorlarini yangi ochilgan holatlar tufayli qayta ko'rish asosi sifatida kiritish lozim.

To'rtinchidan, idoraviy hujjatlar ustidan tizimli nazoratni kuchaytirish uchun Adliya vazirligi tomonidan har bir qabul qilinayotgan vazirlik buyruqlari va qarorlarini nafaqat milliy qonunlarga, balki O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiqligi bo'yicha majburiy tekshirish tartibini, ya'ni "Xalqaro huquqiy filtr" institutini joriy etish zarur.

Beshinchidan, "Xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi Qonunga xalqaro shartnomalarning milliy qonunchilik iyerarxiyasidagi o'rnini va kolliziyalarni yechish algoritmini ko'rsatuvchi aniq o'zgartirishlar kiritish talab etiladi. Shundagina milliy huquqiy tizim va universal xalqaro mezonlar o'rtasidagi simbioz inson huquqlarini har tomonlama himoya qilishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qismida milliy va xalqaro huquq normalarining o'zaro ta'siri shunchaki bir tizimning ikkinchisiga bosimi emas, balki inson qadr-qimmatini oliy qadriyat darajasiga ko'taruvchi ikki tomonlama dialektik integratsiya jarayoni ekanligi o'z isbotini topadi. Xalqaro huquq inson huquqlari sohasida dunyo tan olgan universal andozalar va fundamental mezonlarni belgilab bersa, milliy huquq davlat suvereniteti hamda huquqiy an'analardan kelib chiqqan holda ushbu mezonlarni real hayotga tatbiq etishning kafolatli mexanizmlarini yaratadi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xalqaro huquq primatining qat'iy belgilanishi hamda Jinoyat, Jinoyat-protsessual va Mehnat kodekslariga xalqaro standartlarning muvaffaqiyatli implementatsiya qilinishi mamlakatimiz huquqiy tizimi xalqaro huquqiy makon bilan uyg'un qadam tashlayotganini ko'rsatadi. Biroq konstitutsiyaviy darajadagi ushbu yutuqlar amaliyotda to'liq ishlashi uchun quyi instansiya sudlarida xalqaro konvensiyalarni to'g'ridan-to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantirish, protsessual qonunchilikda BMT qo'mitalari qarorlarining ijro mexanizmini mustahkamlash va idoraviy hujjatlarni qat'iy xalqaro filtdan o'tkazish talab etiladi. Demokratik islohotlarning hozirgi bosqichida milliy qonunchilikni xalqaro huquq bilan tizimli va uzluksiz muvofiqlashtirib borish jamiyatda adolatni ta'minlash, qonun ustuvorligini mustahkamlash va har bir insonning huquqiy himoyasini kafolatlashning yagona strategik yo'lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2023. – 96 b.
2. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt. BMT Bosh Assambleyasining 2200 A (XXI) Rezutsiyasi bilan 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan. // O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'plami.
3. Saidov A.X. Xalqaro huquq va milliy qonunchilik: implementatsiya muammolari va zamonaviy tendensiyalar. – Toshkent: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2021. – 240 b.
4. Kelsen H. Pure Theory of Law (Huquqning sof nazariyasi). – Berkeley: University of California Press, 1967. – 396 p. (Monizm va dualizm doktrinalari uchun fundamental xalqaro adabiyot).